

BIOLOGIYA DARSLARIDA INNOVATSION METODLAR

Ravshanova Zubayda Uralovna

Bozorova Dilfuza Ismatilloevna

*Navoiy viloyati Karmana tuman 28-umumiy o`rta ta`lim maktabining
biologiya fani o`qituvchilari*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada biologiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanish borasidagi fikrlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *o'qitish metodlar, mustaqil ishlashlar, "Botaniklar", "Zoologlar", "Evolyutsionistlar".*

Biologiya fanini o'qitish jarayonida tanlangan o'qitish metodlari biologik bilimlar va ko'nikmalarni egallashni ta'minlashi kerak. Biologiyaning ko'pgina mavzulari amaliy xarakterda bo'lib, ularni faoliyat orqali hal qilish talab qilinadi. O'quvchilar diqqatini nazariy bilimlarni o'rganishga va maqsadni arziqli natijalarni qo'lga kiritishga qaratish kerak, shuningdek, o'quvchilardan muhim nazariy bilimlarni egallash bilan bir qatorda, o'z ustida mustaqil ishlashlari ham zarurligi talab etiladi. Shu sababli, o'z-o'zini boshqarishni va dars davomida o'qitishni o'zida jamlagan o'qitish metodlaridan foydalanish juda muhim. O'quvchilarning ijodiy izlanishi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda ijodiy o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy o'yinli darslardan "Organik olam evolyutsiyasining asosiy yo'nalishlari", "Organik olam evolyutsiyasining dalillari"ni o'rganishda foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda o'quvchilar guruhlariga teng bo'linib, ularning har biriga shartli ravishda "Botaniklar", "Zoologlar", "Evolyutsionistlar" degan nom beriladi. Har bir "mutaxassislar" guruhi ijodiy izlanib, go'yoki fanda yangiliklar kashf etadilar. O'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan topshiriqlarni ko'rgazmali qurollarga tayangan holda bajarib, o'z javoblarini asoslaydilar. Biologiya fanini o'qitishda "Hayvonlar seleksiyasi" mavzusini ishbilarmonlar o'yini auktsion-dars shaklida o'tkazilishi maqsadga muvofiq. O'yin mashqlari uchun televidenie orqali muntazam berib borilayotgan va o'quvchi yoshlarning eng qiziq mashg'ulotlariga aylangan o'yinlarni andoza qilib olish maqsadga muvofiqdir. Bunday o'yinlar jumlasiga "Zakovat", "Zinama-zina", "Kim millioner bo'lishni xohlaydi?" kabilarni kiritish mumkin. Mazkur o'yinlarda o'quvchilar, avvalo, o'z bilimlarini sinab ko'radilar va yana ularning ko'plarida shu o'yinlar ishtirokchisi bo'lish istagi vujudga kelishi tabiiy. Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ham yahshi natijalarni berib kelmoqda. «Domino» usuli. Bu usulni biror bob yoki bo'lim yuzasidan o'tkazish mumkin. Bunda o'quvchilar atama yoki biologiya faniga oid so'zning oxirgi harfiga keyingi so'zni bog'laydi. Masalan:

Amyoba-askarida-ayiq-qo'ng'iz-zigota va hokoza. 3."Pochta qutisi" usuli. Bu usulni guruhlarda ham, kichik juftliklarda ham qo'llash mumkin. Bunda o'quvchilarga turli mavzular yuzasidan aralash atama va tushunchalar aralash holatda beriladi. Pochta qutisi berilgandan so'ng o'quvchilarga quti ichidagi so'z yoki atamalarni mos tarzda ajratishi aytiladi. Masalan: Tobulg'i, archa, vergin, savr, maymunjon, itsigak, bo'ritaroq, afsonak, yeryong'oq, talg'ir lola, qarag'ay, sarvi archa. Bunda ochiq urug'li va yopiq urug'li o'simliklarni ajtaring deb topshriq beriladi. Topshiriqni bajarish uchun so'zlar soniga qarab vaqt beriladi. Bundan tashqari ikki oila o'rtasida(6-sinflarda), ikki sinfni , turkumni(7-sinflarda), ichki, tashqi, aralsh bezlarni, odam organizmidagi organlarni(8-sinflarda) bir biridan ajratib olishida ham qo'llash mumkin. "Matn+test" usuli. Bunda o'quvchilarga matn o'qib beriladi yoki ovoqli moslama yordamida matn eshittiriladi. O'quvchilar diqqat bilan tinglaydi va quyida beriladigan testlarning yechimini topishadi. Bu usul orqali o'quvchilarning diqqat va xotirasi mustahkamlanadi. Bu usul butun sinf bilan ishlaganda qo'llanadi. Masalan: Bir tup o'simlik ildizining tukchalari bir-biriga ulab chiqilsa, uzunligi 20 kmgga yetishi mumkin. Ildiz tukchalarining faoliyati 10-20 kun davom etadi. Ildizning po'st hujayralari tirik, yumaloq va yupqa qobiqli bo'ladi. Makkajo'xorining 1 mm² so'rish qismida 700 ta ildiz tukchalari bo'ladi. G'o'za nihollarining ildizi bir kecha kunduzda 2-3 sm o'sadi. Test 1. Bir tup o'simlik ildizining tukchalari bir-biriga ulab chiqilsa uzunligi qancha bo'ladi? a)10 km b)20 sm d)20 km 2. Ildiz tukchalarining faoliyati necha kun davom etadi. a)10-20 kun b)20-31 kun d)18-48 kun 3. Ildizning po'st hujayralari qanday tuzilgan? a)o'lik, yumaloq, yupqa qobiqli b)tirik, yumaloq, yupqa qobiqli d)tirik, cho'ziq, qalin qobiqli

Biologiyani o'qitish jarayonida o'qituvchi yuqorida qayd etilgan tarzdagi muammoli savollarni o'rta tashlashi va o'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda ijodiy qo'llashi orqali ularda ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirishga e'tibor qaratishi lozim. Xulosa qilib aytganda, zamon bilan hamnafas ishlayotgan har bir o'qituvchi o'quvchilardagi bu istak va orzularni amalga oshirish uchun ta'lim jarayonida shunga o'xshash o'yinlarni o'z vaqtida o'tkazishi o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish va bilish faoliyatini faollashtirishga zamin tayyorlaydi.